

Yakuniy xulosa, refleksiya (5 minut)

Bugun biz o'tgan o'quv yilida musiqa haqida nimani o'rganganimizni esladik. Oldinda bizni juda ko'p qiziqarli darslar kutib turibdi. Bu yil biz juda ko'p yaxshi musiqalarni tinglaymiz, musiqiy ifoda vositalarini farqlashni o'rganamiz, buyuk bastakorlar haqida bilib olamiz va ko'plab ajoyib qo'shiqlarni kuylaymiz va, albatta, musiqiy o'yinlar o'ynaymiz. Musiqa olamiga qiziqarli sayohatga chiqishga tayyormisiz?

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarni "Qo'shiqni top" o'yinidan o'zlariga yoqqanini tanlab, bir nechta satrlarni kuylash orqali ularning yutuqlarini baholashni taklif qiladi.

2-dars. Vatanjonim- Vatanim!

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning Vatan haqidagi tushunchalarini, Vatanga bo'lgan tuyg'ularini kengaytirish;
- o'quvchilarda vokal va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilar qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalarini kengaytiradilar;
- o'quvchilar vatan haqidagi qo'shiqlar kuylash orqali uyg'ongan tuyg'ularni anglaydilar;
- o'quvchilarda vokal ijro mahorati rivojlanadi.

Zaruriy vositalar: darslik, gadjet.

Darsning texnologik xaritasi.

Tashkiliy jarayon (5 minut).

O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, davomat tekshiriladi.

Kirish (10 minut).

Bilimlarni mustahkamlash. Dars mavzusiga kirish. Mavzuni e'lon qilish.

O'qituvchi dars boshlanishidan oldin tayyorgarlik o'yinini o'tkazadi. Turli mamlakatlar madhiyalari yangradi. O'quvchilar O'zbekistonning madhiyasi qaysi tartibda yangraganligini aytishlari kerak.

O'qituvchi bugungi dars mavzusi "Vatanjonim - Vatanim" ekanligini aytadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

"Vatan" so'zini qanday tushunasiz?

Nega siz vatanningizni sevasiz?

Asosiy qism (20 minut.).

O'qituvchi "Vatanjonim - Vatanim" qo'shig'ini tinglashni va kuylashni taklif qiladi. Qo'shiqning audio yozuvi, QR kodi, darslikda mavjud. Qo'shiqni guruhlariga bo'lib o'rganish, masalan, o'g'il bolalar va qizlar: o'g'il bolalar har bir misraning birinchi yarmini, qizlar har bir misraning ikkinchi yarmini o'rganadilar va naqoratni hamma birgalikda o'rganadi. Keyin, o'qituvchi har bir guruhga qo'shiq ijrosini ko'rsatib, yordam beradi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilar bilan ular eshitgan qo'shiqning ma'nosi, qaysi so'zlarni nima uchun yoqtirishganligi haqida suhbat o'tkazadi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar, taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar.

Yakuniy xulosa, refleksiya (5 minut.).

Mustaqil tayyorgarlik sifatida o'quvchilarga "Vatanjonim - Vatanim" qo'shig'ini yodlash tavsiya etiladi.

Natijalarni baholash uchun o'qituvchi o'quvchilarni qo'shiqdan o'zlari yoqtirgan so'zlarni tanlashni va ularni juda ifodali talaffuz qilishni yoki ostiga "layk" bosishni taklif qiladi,

3-dars. Shermat Yormatov

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning kompozitorlar va musiqa ijodkorlari haqidagi tushunchalarini kengaytirish;
- musiqa uyg'otadigan his-tuyg'ularni tushunishni kengaytirish;
- o'quvchilarning musiqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilar O'zbekiston bastakorlari haqida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'quvchilar xor qo'shiq ijrosi va yakkaxon ijro o'rtasidagi farqni tushunadilar;
- o'quvchilar "A Capella" atamasining ma'nosini tushunishadi;
- o'quvchilarda xor ijrosida vokal ko'nikmalari shakllanadi.